

Narkotik moddalar va uning ta'siri

Xozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-moxiyatini yoritish, turli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borishga doirasida fakultetimiz talabalari orasida seperatizm, millatchilik, ekstrizm, "ommaviy ma'daniyat" dinlararo bag'rikenglikga qarshi qaratilgan adovatni avj olishga sabab bo'ladigan xarakatlarni oldini olish hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2021-yil 12-sentyabr 3875-son xatida "Narkotik moddalarning suiste'moli va noqonuniy aylanishiga qarshi kurash" bo'yicha 2021-2025-yillarga mo'ljallangan kompleks chora-tadbirlar rejasi doirasida joriy yilning 30- oktyabr kuni "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti talabalari soxa mutaxassislari bilan tadbir o'tkazdi.



Tadbirda Mirzo Ulug'bek tumani IIBB xodimalaridan kapitan T.YU.Malashkil va katta leytenant A.A.Axmedova narkotik moddalarning inson sog'lig'iga ta'siri va uning oldini olish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish ishlari to'g'risida tushinchalar berib, videoroliklar qo'yib berishdi. Tadbir davomida talaba-yoshlarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi.



YOBIB dekan muovini K.Usmonov

TIQXMMI matbuot xizmati